

JADIDLAR: MILLIY O'ZLIK, ISTIQLOL VA DAVLATCHILIK
G'OYALARI

Salimov Karimjon Zokirjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni

muhofaza qilish akademiyasi

“Tergov faoliyati”

yo'nalishi 2-kurs talabasi

e-mail: karimjonsalimov50@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati, ma'rifatparvar jadidlarning ilm-ma'rifat va yoshlar ta'lim-tarbiyasini yangilashga oid qarashlari va amaliy faoliyati, jadidlarning davlatchilik g'oyalari va milliy birlikni mustahkamlashdagi o'rni keltirib o'tilgan. Mustaqillikdan so'ng jadidlar ruhini abadiylashtirish bo'yicha qilingan ishlar

Kalit so'zlar: jadidchilik, ta'lim-tarbiya, ma'rifat, istiqlool, davlatchilik g'oyalari, jadidchilik namoyondalari, milliy birlik, jadidlar merosi, milliy va jangovar ruh, fuqarolik jamiyati.

ДЖАДИДОВ: ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ,
НЕЗАВИСИМОСТИ И ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

Аннотация: В данной статье рассматривается движение джадидизма, сформировавшееся в Туркестане в начале XX века, взгляды и практическая деятельность просвещенных джадидов по вопросам обновления науки и образования и воспитания молодежи, роль джадидов в укреплении идей государственность и национальное единство. После обретения независимости даются краткие сведения о проделанной работе по увековечению духа джадидов.

Ключевые слова: джадидизм, образование, просвещение, независимость, идеи государственности, проявления джадидизма, национальное единство, наследие джадидизма, национально-боевой дух, гражданское общество.

JADIDISM: IDEAS OF NATIONAL IDENTITY, INDEPENDENCE AND STATEHOOD

Annotation: This article analyzes, the Jadidism movement formed in Turkestan at the beginning of the 20th century, the views and practical activities of the enlightened Jadids regarding the renewal of science and education and youth education, the role of the Jadids in strengthening the ideas of statehood and national unity. raised After independence, brief information about the work done to perpetuate the spirit of the Jadids is given.

Key words: Jadidism, education, enlightenment, independence, ideas of statehood, manifestations of Jadidism, national unity, legacy of Jadidism, national and martial spirit, civil society.

Har bir davrda va millatning har bir farzandi ruhida boqiy yashab kelayotgan, Vatanning mustabidlar zulmidan ozod bo'lishini, elga erk, hurriyat istagan xalqimizning qalbi uyg'oq farzandlari bo'lmish jadidlar hamisha fikru yodimizni egallaydi. Bu millat oydinlari tarixini, hayoti va faoliyatini o'rganganimiz sari ular barhayot bo'laveradi, yuraklarimizni bir chetini tirnayotgan armonlar qayta gavdalanadi. Ko'z o'ngimizda turgan haqiqat go'yoki ularni qaytarib olish mumkindek katta umidlar beradi. Darhaqiqat, taraqqiyparvar ja'didchilar XIX asr oxiri va XX asr boshida Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olinib, xomashyo bazasiga aylantirilgan, iqtisodiy-madaniy inqiroz yoqasiga kelib qolgan Turkistonning yangilikka tashna islohotchilari edi. Ular mustamlakaga aylangan o'lkaning taraqqi-yotdan ancha ortda qolganini zakiylik bilan ko'ra olgan, Turkistondagi ichki nizolar, eskicha idora usullari xalq xo'jaligi va umumiy rivojlanishga ulkan zarar yetkazayotganini o'z

vaqtida anglab yetgan va bu qoloqliklarni bartaraf etish uchun ilmga, ta'limga katta e'tibor qaratish lozimligini ayta olgan vatanparvar ziyolilar edi. Jadidlar mamlakatni qoloqlikdan chiqarishni ma'rifat va turkiy xalqlar birligida deb bilishdi. Ular maktab, maorif, kutubxona, qiroat-xona, matbuot, teatr, adabiyot va san'atdan siyosatga o'tib, ommaviy ta'sir etish, bilimsizlik va jaholatga qarshi kurashishda xalq ongida fikriy-hissiy inqilob yasashdi. Binobarin, ular o'z o'tmishdoshlaridan ancha ilgarilab ketgan yangi avlod edi. Bunday hol Qozog'istondagi «Alash O'rda» harakati (keyinchalik «Alash O'rda» hukumati) faoliyati-da ham yorqin namo-yon bo'ldi. Shubhasiz, bu jarayon Cho'qon Valixonov, Oltinsarin, Abay Qo'nonboyev singari ma'rifatparvar ziyo-lilar ijodi va faoliyati ta'sirida vujudga keldi. Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan Mustafo Cho'qay (Cho'qayev) «Birlik tug'i» gazetasi muharrirligidan Munavvarqori Abdurashidxonov yetakchilik qilgan «Sho'roi islom» harakati faollaridan biri va Turkiston muxtoriyati hukumati Bosh vaziri, tashqi ishlar vaziri darajalarigacha ko'tarildi. Kadrlar masalasiga katta ahamiyat qaratgan jadidlar «Xayriya jamiyati» ko'magida ko'plab Turkiston yoshlarini Turkiya, Germaniya, Saratov, Qozon kabi shaharlardagi nufuzli ilm dargohlariga o'qishga jo'natishgan. Anglashiladiki, o'z davrining eng tashabbuskor islohotchi va fidoyi insonlarini birlashtirgan jadidchilik harakati XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Turkiston xalqlari manfaatlarini ifodaladi. Ming afsuski, jadid bobolarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarini amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi. Ma'rifat fido-yilari o'sha davrning turli johil kimsalari tuhmat-malomatlariga duchor bo'ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qildi. Shu tariqa, milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo'lib qoldi. Shunday qilib, jadidchilik harakati rivojini uch bosqichga ajratish mumkin:

1. XIX asrning 80-yil oxirida mamlakatimizda jadidchilik harakati paydo bo'ldi. Toshkentda – Munavvarqori va Avloniy; Samarqandda – A.Munzim, S.Aziziy, Mulla Qilich; Buxoroda – Jo'raboy Maxsum; Qo'qonda – Hamza; Namanganda So'fizoda va Ibrat kabi olimu fuzalolar maktab ochish, noshirlik, savodxonlikni oshirish borasida

muhim ishlarni amalga oshirdilar. Bu jarayon I jahon urushigacha davom etdi. Butun mamlakat bo'ylab ko'plab jadid maktablari faoliyat olib bordi. Shuningdek, matbaachilik, noshirlik, ilm-fan, adabiyot, madaniyat, maorifni milliy asosga ko'chirishga intilish kuchaydi;

2. I jahon urushi Rossiya imperiyasidagi ahvolni yanada murakkablashtirib yubordi, uning hududida siyosiy harakatlar kuchayib ketdi. Bu davrda jadidchilik o'ta ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etib, uning g'oyalari asosida siyosiy partiyalar tuzildi;

3. 1917 yil oktyabrda Rossiyadagi davlat to'ntarishidan keyin Qo'qonda Turkiston Muxtoriyati tuzildi va oradan bir yil o'tmasdan, bolsheviklar tomonidan zo'ravonlik bilan yo'q qilindi. Muxtoriyat rahbarlari, uni e'lon qilishda ishtirok etgan yoki unga xayrixoh bo'lganlar ham badarg'a va quvg'in qilindi, qatag'onga uchradi.

Yurtimizning ko'plab ziyolilariga, shu jumladan Behbudiyya ham katta ta'sir ko'rsatgan taniqli tojik yozuvchisi, faylasufi va tarixchisi "kalla" laqabli Ahmad Donish (1827-1897) edi. U o'z davrining eng bilimdon odamlaridan biri bo'lib, Buxoroning Sankt-Peterburgdagi elchixonasi faoliyatida bir necha bor qatnashgan (1857, 1869, 1874), "Risola yoxud mang'itlar saltanatining qisqacha tarixi" bo'lib, XIX asr O'rta Osiyo tarixiga oid muhim manbalarning ahamiyatini saqlab qolgan. U ishlab chiqqan islohotlar loyihasiga ko'ra amirning hokimiyati cheklanishi kerak edi, amirning o'zi esa Buxoroda matematika, geografiya, tabiiy fanlarni o'z ichiga olgan umumiy ta'limni joriy etish orqali xalqni ma'rifat qilish uchun hamma narsani qilishga va'da berishi lozim edi. Donish tabiiy boyliklardan keng foydalanish, rus tili va rus madaniyatini o'rganish tarafdori bo'lgan. Biroq, uning loyihalari hukmron elita tomonidan rad etildi va ruhoniylar Donishni "murtadlik" sifatida qoralashdi. Biroq, keyinchalik jadidlar uni O'rta Osiyoda "jadidchilik harakati peshqadami" deb tan olishdi. Turkiston jadidlari orasidan Munavvarqori Abdurashidxonov va Ubaydulla Xo'jayev ham ajralib turardi. Ulardan birinchisi, yangi uslub maktabini ochib, o'zi maktab uchun darsliklar tuzdi, 1906 yilda Toshkentda "Taraqqi" (Progress) gazetasini, 1907 yilda esa hukumat tomonidan "o'ta zararli so'l yo'nalishda"ligi tufayli yopilgan

"Shuhrat" (Slava) gazetasini nashr etdi. Ubaydulla Xo'jayev, Abdurashidovdan farqli o'laroq, rossiyaparast (Saratovda o'qigan), taniqli advokat va jurnalist bo'lib, "Sadoi Turkiston" (Turkiston ovozi) gazetasini nashr etgan. U rus esserlariga yaqin edi va dastlab faqat din, madaniyat va ta'lim masalalariga qiziqqan jadidlarni siyosiylashtirishga harakat qilardi. Umuman olganda, matbuot, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda jadidlar harakatini shakllantirishda katta rol o'ynadi. Turkistonda Jadidizmning rупorlari (targ'ibotchilari) rolini Toshkentdagi "Taraqqi", "Tujur", "Shuhrat" va "Sadoi Turkiston", Samarqanddagi "Samarqand" va "Oyina" jurnallari, Farg'onadagi "Sadoi Fargona", Buxorodagi "Turon" va "Buxororoi-Sharif", gazetalari o'ynagan, shuningdek, Orenburgda taniqli jadid Rizautdin Faxretdinov tomonidan nashr etilgan "Shura" jurnali Markaziy Osiyo muammolariga katta e'tibor qaratgan. Biroq, aholining ommaviy savodsizligi tufayli jadid matbuoti musulmonlarning keng qatlamlari orasida nufuzli va hatto mashhur emas edi. Bundan tashqari, jadid gazetalarning umri qisqa bo'lib tezda yo'q bo'lib ketardi; "Taraqqi" 1906-yil martdan iyulgacha chiqdi, uning o'rniga "Xurshed" o'sha yilning sentyabridan noyabrigacha, "Shuhrat" 1907-yil dekabrda 1908 yil fevralgacha chiqdi, 1908-yil apreldan nashri etib boshlangan "Osiyo" gazetasi beshinchi nashrdan keyin yopildi. Jadidlar har xil xayriya jamg'armalarini tashkil etish, boy va badavlat kishilarning ortiqcha mablag'larini millat va Vatan manfaati yo'lida sarflashga ham katta e'tibor berdilar. Toshkentda 1909-yilda "Ko'mak", 1910-yilda esa "Tarbiyai atfol" va Buxoroda 1913-yilda "Dorul ojizin" xayriya jamiyatlari tashkil etiladi. Ularning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad sarmoya topib, jadid maktablariga yordam berish va iqtidorli yoshlarni Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborishdan iborat bo'ldi. Demak, ma'rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy topib bordi. Bular: maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilimli ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga

oshirish yo'lida katta ishlar qilindi. Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqbolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.

Aytish joizki, mamlakatda yangilanishlar to'lqinini yaratgan, Yangi Renessans davrining elparvar jadidi bo'la olgan – ma'rifatparvar ajdodlarimizning yetuk davomchisi - Davlatimiz rahbari bugun xalqimiz yuragida qolgan jadidiy alamlarga malham bo'lmoqda. So'ngi yillarda bu hurriyat elchilari xotirasini abadiylashtirish, jadidlar faoliyati va merosini o'rganish, o'rgatish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Bugun yurtimizda ularning ulug' nomlari bilan ataluvchi manzillar, ta'lim maskanlari va so'lim go'shalar borki, ularga qadam bosgan har bir vatandoshimiz qalbida jadidona hislar uyg'onadi. "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo'limlari faoliyat olib bormoqda. Ana shu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidchilik tarixi muzeyi tashkil etilmoqda. Mahalla idoralarida "Qatag'on qurbonlari xotirasi burchaklari" va "Mahalla xotira kitoblari"ni tashkil etish, har yili kamida 100 nafar qatag'on qurboni hamda jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiradigan to'plam tayyorlash rejalashtirilgan. Ushbu muhim mavzuda arxiv hujjatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun maqsadli grantlar e'lon qilish, yangi badiiy va publitsistik asarlar yaratish, xorijiy ilm-fan markazlari, fondlar va muzeylar, kutubxonalar bilan hamkorlikni rivojlantirish choralari ko'rilmog'da. Mamlakatimizda har yili 31-avgust sanasi "Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni" sifatida keng nishonlanayotgani esa yosh avlod uchun munosib yodnoma bo'ldi. Shuningdek, jadidlar tarixiga oid ilmiy va

badiiy asarlar nashr etilayotgani, badiiy va hujjatli filmlar yaratilayotgani, dunyo hamjamiyati ishtirokida xalqaro konferensiyalar o'tkazilayotgani esa milliy ta'lim targ'ibotchilari xotirasini qayta-qayta jonlantirmoqda. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan tashkil etilgan 2023-yil 11-12-dekabr kunlari Toshkentda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusida ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Mazkur konferensiyada jadidlar ilmiy merosining jahon tamaddunidagi hissasi e'tirof etildi. Prezidentimiz 2023-yil 22-dekabrda o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida jadid bobolarimizning milliy taraqqiyotni har tomonlama jadallashtirish, ziyoli va ijodkorlarni birlashtirishga daxldor tashabbuslari qatorida "Jadid" gazetasini ta'sis etish g'oyasini qo'llab-quvvatladi va ushbu nashrni yangi yilning birinchi kunida chop etish taklifini ilgari surdi. Gazeta jadid bobolarimizning "Tilda, fikrda, ishda birlik!" degan qutlug' so'zlarini shior qilib olgan. 2024 yilning ilk kunida "Jadid" nomli gazeta nashr etildi. Uning tashabbuskori Prezidentimiz aynan o'zlarining nutqlarida xuddi shunday gazeta tashkil qilish kerak, degan fikrni ilgari surgan edi. Bu jarayonda "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi negizida paydo bo'lgan bu gazetaning xodimlari, jadidshunoslar, olimlar jiddiy ishladi va qisqa muddat davomida davlatimiz rahbarining topshirig'i bajarildi. Prezidentimizning bu tashabbusini nafaqat biz, balki xalqaro miqyosdagi jadidshunos olimlar, jadid adabiyoti, jadid madaniyati, jadid san'ati bilan shug'ullanadigan barcha ziyo ahli qo'llab-quvvatlamogda. Nashrda O'zbekiston xalq shoiri, atoqli ijodkor Iqbol Mirzoning "Muharrir minbari" rukni ostidagi "Birlashmoq davri" sarlavhali bosh maqolasida mazkur yangi nashrning mazmun-mohiyati, maqsadmuddaolari, yo'nalishlari tahlil etilgan. Bugun dunyoda yangilanayotgan O'zbekiston sifatida e'tirof etilayotgan mamlakatimizda kechayotgan ma'rifiy islohotlarning jadid bobolarimiz g'oya va intilishlari, maqsad-muddaolariga nechog'li hamohang ekani teran, samimiy, ravon, xalqchil tarzda ifoda etilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, jadidlar faoliyatining kichik bir tarmog'ini tahlil qilish bilan, bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan juda katta ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishimiz mumkin hamda fan

tarmog'ining barcha sohalarida foydalansa bo'ladigan amaliy ko'nikmalar yaratish mumkin. Avvalo muayyan xalq o'tmishga nazar solishi undan namuna olishi lozim, qolaversa, jadidchilik harakati ilm va g'oyalarni tarqatishda matbuotning ahamiyatini ta'kidlagan, gazeta va jurnallarni chiqarish orqali jadidlar o'z tarbiyaviy g'oyalarini keng ommaga yetkaza olganlar. Jadidlarning maktab, madrasa, matbuot, teatr san'ati kabi turli platformalar orqali olib borgan ilmiy-pedagogik faoliyati katta ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan, ularning zamonaviy va ilg'or g'oyalarga urg'u berishlari, shuningdek, an'anaviy islom ta'limoti va zamonaviy ta'lim o'rtasidagi tafovutni betaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlari Markaziy Osiyo jamiyatlarining intellektual va ma'rifiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jadidlar matbuotdan o'z g'oyalarini targ'ib qilish va kengroq auditoriyani qamrab olish uchun kuchli vosita sifatida foydalanganlar. Ular gazeta, jurnal va kitoblar orqali ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini, taraqqiyotning qadrini, ijtimoiy islohotlar zarurligini keng ommaga yetkazib turganlar. Bu esa kitobxonlik madaniyati va intellektual faollikni rag'batlantirish bilan birga, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy yuksalishga xizmat qilgan. Turkiston jadidlari tomonidan o'z davrida ko'tarilgan muammolar, bugungi kunimiz uchun ham o'zining dolzarbligini saqlab kelmoqda. Zero, davlatimiz rahbari o'rinli ta'kidlaganidek, "Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqbolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev, (2023) Jadidlar, milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari ” mavzusidagi xalqaro konferensiyasi ishtirokchilariga tabrigi// (<https://president.uz/uz/lists/view/6919>).
2. “Jadidona ruhiyatli milliy matbuot” F.f.d.prof.Bahodir Karim. Yuz.uz. Rasmiy sayti. 5.06.2023y.
3. Xasanov, Baxtiyor, & Irzayev, Baxrom (2022). Millatimiz fidoyilari (Ilmiy-ommabop maqolalar to'plami) Tashkent.
4. H. Komilova. Jadidlar faoliyatida ma'rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari. Scientific progress. Volume 2.
- 5.<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-o-zbek-sheriyati/munavvar-qori-abdurashidxonov-1878-1931>.